


NAMANGAN VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- may)


Viloyat bo'yicha 2019 yilning yanvar- may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3797,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 424,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 56,0 foiz), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 3373,2 mlrd.so'mni (o'sish sur'ati 2,0 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 405,3 mlrd.so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 foizga kamaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uchqo'rg'on, Chust, Chortoq va To'raqo'rg'on tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (foizda)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)

2018 yil
yanvar- may



2019 yil
yanvar- may




■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar
 chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	424211,8	156,0	3373211,6	102,0
Namangan.sh	162014,9	118,0	1429740,5	102,3
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	279,9	86,4	79817,0	101,9
Kosonsoy	623,6	92,5	191346,0	102,0
Namangan	1131,7	515,4	177749,6	102,1
Norin	7777,4	92,6	245545,4	101,1
Pop	29736,8	136,9	206474,9	101,9
To'raqo'rg'on	27313,4	218,5	228419,3	102,0
Uychi	515,9	140,6	134041,7	101,8
Uchqo'rg'on	46516,2	386,3	139206,0	101,8
Chortoq	33283,5	1113,1	168923,7	101,9
Chust	112333,9	176,0	176960,8	102,0
Yangiqo'rg'on	2684,7	23,1	194986,6	102,2

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (foizda)



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilga nisbatan Viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Namangan shahri (2595,0 ming.so`m), Norin (1578,3 ming.so`m) va To'raqo'rg'on (1156,6 ming.so`m) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Uychi (646,6 ming.so`m), Mingbuloq (649,6 ming.so`m), Yangiqo'rg'on (927,2 ming.so`m) va Kosonsoy (939,6 ming.so`m) tumanlarida qayd etilgan.

2019 yil yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1376,9 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,1 foizga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	1376,9	104,1
Namangan.sh	2595,0	101,6
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	649,6	99,7
Kosonsoy	939,6	99,9
Namangan	1022,2	100,4
Norin	1578,3	99,1
Pop	1096,6	103,4
To`raqo`rg`on	1156,6	106
Uychi	646,6	99,7
Uchqo`rg`on	1102,2	122,5
Chortoq	1037,0	117,5
Chust	1111,8	119,6
Yangiqo`rg`on	927,2	95,8

2019 yilning yanvar-may oylarida o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5 foizni tashkil etib, 58,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar oylariga nisbatan 16,6 foizga o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,2 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar-may)


Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 887,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 14,1 foizga ko'paydi

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar- may oylari yakunlariga ko'ra 444,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 % ga ko'paydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 50,1 % ni tashkil qilmoqda.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	887755,0	114,1	443327,9	130,7	444427,1	101,3
Namangan.sh	442767,7	106,3	232178,4	111,4	210589,3	101,2
tumanlar:						
Mingbuloq	3744,0	97,8	116,8	48,1	3627,3	101,2
Kosonsoy	27497,2	100,0	99,3	22,5	27397,9	101,3
Namangan	21971,8	100,5	296,7	64,6	21675,1	101,3
Norin	40932,6	101,1	4,0	7,4	40928,7	101,2
Pop	21302,3	101,4	200,5	110,2	21101,8	101,3
To'raqo'rg'on	208654,1	173,6	186462,0	189,6	22192,2	101,5
Uychi	10345,3	100,9	19,6	34,0	10325,7	101,3
Uchqo'rg'on	11329,9	91,9	122,8	9,7	11207,1	101,3
Chortoq	54718,1	116,7	7128,2	0,0	47589,9	101,5
Chust	25798,8	67,0	16699,5	56,6	9099,2	101,5
Yangiqo'rg'on	18693,0	100,1	0,0	0,0	18693,0	101,3

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari (foizda)**



Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o`sinh sur`ati kuzatildi: To'raqo'rg'on – 173,6% va Chortoq – 116,7% tumanlarda ko`paydi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-84-89**